

O'zbekiston sertifikatlangan
moliya mutaxassislari
uyushmasi (ACFP)



afs

Associate
Finance
Specialist

AFS malakasi bo'yicha qo'llanma



acfp
Uzbekistan

Association of
Certified Finance
Professionals
of Uzbekistan

Мундарижа

ACFP malaka dasturi.....	2
Xalqaro e'tirof sari birinchi qadam.....	3
AFS kimga va nima uchun kerak	4
AFS tasdiqlaydigan vakolat.....	6
Yagona imtihon (A.FR+MA) tuzilmasi	8
A.FR+MA imtihoniga qanday tayyorlanish kerak.....	10
Akademik jihatdan halollik	11
AFS malaka belgisidan foydalanish	12
Keyin nima bo'ladi	13



ACFP malaka dasturi

Har bir biznes muvaffaqiyatga erishishi uchun xodimlar – moliya sohasidagi professionallarning o'рни juda muhim. O'zbekiston sertifikatlangan moliya mutaxassislari uyushmasi (ACFP) bilan shunday professionalga aylaning.

ACFP malaka dasturi 4 ta asosiy va 2 ta maxsus darajani qamrab oladi:

- **A darajasi – AFS** (Associate Finance Specialist/Sertifikatlangan kichik moliya mutaxassisi);
- **B darajasi – CFS** (Certified Finance Specialist/Bazaviy darajada sertifikatlangan moliya mutaxassisi);
- **C darajasi – CFP** (Certified Finance Professional/Professional darajada sertifikatlangan moliya mutaxassisi);
- **D darajasi – ACFP** (Advanced Certified Finance Professional/Ilg'or darajada sertifikatlangan moliya mutaxassisi);
- **CiPNUZ** – Soliqlar va huquq bo'yicha bazaviy darajada sertifikatlangan mutaxassis;
- **DiPNUz** – Soliqlar va huquq bo'yicha professional darajada sertifikatlangan mutaxassis.

Malakani pastroq darajadagi malakadan yuqoriroq darajadagi malakaga sari bosqichma-bosqich tasdiqlash lozim.

Sizning kasb sari yo'lingiz: AFS → CFS → CFP → ACFP






Xalqaro e'tirof sari birinchi qadam

Agar sizda oliy moliyaviy ma'lumot yoki professional malakangizning nufuzli rasmiy tasdig'i bo'lmasa, AFS (Associate Finance Specialist/Sertifikatlangan kichik moliya mutaxassisi) malakasidan boshlang. Ushbu malaka – moliyaviy mutaxassisliklar asosida mujassam bo'lgan moliyaviy va boshqaruv hisobi bo'yicha bilimlaringizni tasdiqlash uchun risoladagidek boshlanish nuqtasidir.

AFS dasturi – bu shunchaki ikkita – A. FR +MA Moliyaviy va boshqaruv hisobiga kirish hamda A.PA Amaliy buxgalteriyaga kirish imtihoni emas, balki:

- moliyaviy va boshqaruv hisobining asosiy tamoyillari va konsepsiyalari bo'yicha bilimni va buxgalteriyada boshlang'ich ish ko'nikmalarini tasdiqlaydigan;
- moliya sohasi mutaxassisi bo'lish uchun zarur bazaviy va professional vakolatlarni o'zlashtirish imkoniyatini beradigan malakadir.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi sohasida boshlang'ich bilim va buxgalteriyada boshlang'ich ish ko'nikmalariga ega bo'lish imkoniyatidan foydalaning. Sizga AFS malakasini olish imtihonlariga tayyorlanish uchun kamida 5 oy vaqt talab qilinadi. Bu sizga O'zbekistonda mikro va kichik biznesga xizmat ko'rsatuvchi boshqa buxgalterlarga nisbatan kattaroq muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi.



ACFPga qo'shiling va jahon darajasidagi professional mahorat cho'qqisi tomon ilk qadam qo'ying.



AFS kimga va nima uchun kerak

Maktab bitiruvchilari/faoliyatini endigina boshlagan buxgalterlar uchun

AFS malakasi siz uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi va bu kasb sizga to'g'ri kelish-kelmasligini tushunishga yordam beradi.

Bu moliya-iqtisodiy faoliyatning har qanday sohasida foydali bo'ladigan moliyaviy va boshqaruv hisobida boshlang'ich bilimlarni, shuningdek amaliy buxgalteriyada boshlang'ich bilim va ko'nikmalarni olish imkonini beradi.

Imtihonlarga tayyorlanish kasb haqida umumiy tasavvur beradi va sizning kelgusi kasbingiz borasida ongli ravishda qaror qabul qilishga yordam beradi.

Iqtisodiy va moliyaviy mutaxassisliklar talabalari uchun

AFS malakasi sizga betakror imkoniyatlarni taqdim etadi. U:

- ❖ sizning akademik bilimlaringizni amaliy ko'nikmalar bilan boyitgan holda chuqurlashtiradi;
- ❖ stajirovkalarda va kelgusida ishga joylashishda raqobat jihatdan afzallikni ta'minlagan holda, tengdoshlar orasida ajratib turadi.

Siz olingan bilimlarni real vaziyatlarda qo'llashingiz mumkin, bu mehnat bozorida sizning qadringizni oshiradi va moliya sohasida martabangiz o'sishini jadallashtiradi.

Hisob yurituvchi buxgalterlarga

AFS malakasi moliyaviy va boshqaruv hisobining, shuningdek amaliy buxgalteriyaning tamoyillari va konsepsiyalarini kompleks o'zlashtirishni ta'minlagan holda, tor ixtisoslashuv doirasidan tashqarida o'z bilim va ko'nikmalaringizni kengaytirish imkonini beradi. Bu hisobning turli uchastkalari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni va o'z ishingizning korxona moliyaviy holati va faoliyatining natijalariga ta'sirini yaxshiroq tushunish imkonini beradi.

AFS malakasini olish professional o'sishga ko'maklashadi, tashkilotlar uchun qadringizni oshiradi va martabangiz o'sishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi.

Mikro va kichik biznesdagi bosh buxgalterlar uchun

Agar sizda oliy moliyaviy ma'lumot yoki professional malakangizning nufuzli rasmiy tasdig'i bo'lmasa, AFS malakasi foydali bo'lishi mumkin. U:

- ❖ sizga moliyaviy va boshqaruv hisobi, shuningdek amaliy buxgalteriya bo'yicha bilim va ko'nikmalaringizni yangilash va tizimlashtirishga yordam beradi, bu ish joyida mahorat va samaradorlikni kuchaytiradi;
- ❖ malakangizni diplom bilan tasdiqlaydi, bu bosh buxgalterning professional maqomi va martaba o'sishi uchun imkoniyatlarni yaxshilashi mumkin.

Kichik biznes rahbarlari va mulkdorlari uchun

AFS malakasiga ega bo'lsangiz, moliyaviy va boshqaruv hisobining umumiy tamoyillari va konsepsiyalarini tushunib olasiz. Bu sizga:

- ❖ biznesingiz moliyasini yaxshiroq boshqarish va faqat ichki sezgi bilan emas, balki ma'lumotlar asosida samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- ❖ biznesning o'zida va autsorsda – sizga nima uchun savodli moliya mutaxassisi kerakligini tushunishga;
- ❖ biznesingizga xizmat ko'rsatuvchi moliya mutaxassisi faoliyatini nazorat qilish va u bilan bir tilda gaplashish imkonini beradi






AFS tasdiqlaydigan vakolat

AFS malakasi moliyaviy kasblarning kichik lavozimlarida ishlash uchun zarur bo'lgan vakolatni ikkita fan – moliyaviy hisob va boshqaruv hisobi hamda amaliy buxgalteriya bo'yicha tasdiqlaydi:

Moliyaviy hisob	Boshqaruv hisobi
savdo kompaniyasining har qanday namunaviy o'tkazmasini tuzish	boshqaruv hisobi maqsadlarida xarajatlarni bo'lishning turli usullarini tushunish
u quyidagi moliyaviy hisobotlarga qanday ta'sir qilishini tushunish:	ishlab chiqarish va xaridlar byudjetlarini umumlashtirilgan ko'rinishda tayyorlash
– moliyaviy holat to'g'risida hisobot, – foyda va zarar to'g'risida hisobot va – kapital o'zgarishi to'g'risida hisobot.	ishlab chiqarish xarajatlari va tushum bo'yicha asosiy og'ishlarni hisob-kitob va talqin qilish ma'lumotlarni tahlil qilish uchun qanday statistik ko'rsatkichlardan foydalanilishini tushuntira olish.

Amaliy buxgalteriya
boshlang'ich hujjatlarni rasmiylashtirish va yuritish BHMSga asosan namunaviy buxgalteriya o'tkazmalarini tuzish mikro va kichik biznes tomonidan to'lanadigan asosiy soliqlar hisob-kitobi biznes yuritishning asosiy shakllarini bilish oddiy operatsiyalarni hisobga olish uchun 1C va 1Uz dasturlaridan foydalanish

Ikkita imtihonda (A.FR+MA va A.RA) ushbu bilim va ko'nikmalarni tasdiqlagan holda, siz quyidagi lavozimlarda ishlashingiz mumkin:





A.FR+MA yagona imtihon tuzilmasi

AFS malakasini olish uchun siz yagona imtihonni (A.FR+MA) topshirishingiz lozim. U quyidagi ikkita o'quv dasturiga asoslanganligi bois, yagona imtihon deyiladi:

- ❖ Moliyaviy hisobga kirish (A.FR);
- ❖ Boshqaruv hisobiga kirish (A.MA).

«Moliyaviy hisobga kirish» (A.FR) fani bo'yicha o'quv dasturining maqsadi – nomzodlarda moliyaviy hisobni tashkilotning kapitali, aktivlari va majburiyatlarining o'zgarishini kuzatib borish mexanizmi sifatida to'liq tushunishni shakllantirish.

«Boshqaruv hisobiga kirish» (A.MA) fani bo'yicha o'quv dasturining maqsadi – nomzodlarda tashkilotda boshqaruv hisobi asoslarini to'liq tushunishni shakllantirish.

Yagona imtihonda (A.FR+MA) moliyaviy va boshqaruv hisobi bo'yicha topshiriqlarni bajarish uchun sizga bazaviy matematika ko'nikmalari va Excel dasturidan foydalanish layoqati kerak bo'ladi. Siz quyidagilar haqida bilib olasiz:

- ❖ zarur matematika ko'nikmalari haqida – A.FR va A.MA o'quv dasturlarining alohida bo'limlaridan, shuningdek «Moliyachi uchun matematika asoslari» (A.MT) qo'shimcha kursi dasturidan;
- ❖ Excel dasturidan foydalanishning talab qilinadigan ko'nikmalari haqida – «Moliyachi uchun Excel asoslari» (A.XL) qo'shimcha kursi dasturidan.

A.FR+MA yagona imtihoniga kirish shartlari



A.FR+MA imtihonini topshirish huquqiga ega bo'lish uchun siz:

- ❖ umumiy o'rta ma'lumotdan past bo'lmagan ma'lumotga ega bo'lishingiz;
- ❖ ACFP abituriyentiga – AFS malakasi talabgoriga aylanishingiz kerak.

acfp.uz saytida «A'zolik» bo'limida ACFP abituriyenti sifatida ro'yxatdan o'ting. Ro'yxatdan o'tgunga qadar ACFP ustavi, Axloq va professional xulq kodeksi va ACFPda ishtirok etish to'g'risida nizom bilan tanishib chiqing.

E'tibor bering! Ro'yxatdan o'tgan paytdan e'tiboran dastlabki 12 oy siz 1 BHM miqdorida har yilgi a'zolik badalidan ozod qilingansiz. Ammo, agar ushbu muddat mobaynida siz A.FR+MA imtihonidan muvaffaqiyatli o'tolmasangiz, uni keyingi 12 oyda topshirish huquqini saqlab qolish uchun 1 BHM to'lash kerak bo'ladi.




A.FR+MA imtihoni qanday va qayerda o'tkaziladi

A.FR+MA imtihoni kompyuterda testlar formatida o'tkaziladi. Imtihon davomiyligi – 3 soatu 15 daqiqa. Imtihon «yopiq kitob bilan» o'tkaziladi – har qanday materialdan foydalanish taqiqlangan.

Imtihon testlar shaklidagi 75 ta savoldan iborat – moliyaviy hisob bo'yicha 37 ta savol, boshqaruv hisobi bo'yicha 38 ta savol. Siz berilgan variantlardan bir yoki bir nechta javobni tanlashingiz yoki bo'sh joyni to'ldirishingiz kerak bo'ladi.

Har bir savol bir xil vaznga ega (2 ball). Shu tariqa, imtihonda olinishi mumkin bo'lgan eng yuqori natija 150 ballni tashkil etadi. O'tish balli – 90 ball (60%), ya'ni siz 75 ta savoldan 45 tasiga to'g'ri javob berishingiz lozim.

A.FR+MA imtihoni imtihon markazlarida o'tkaziladi va avtomatik tarzda tekshiriladi. Siz imtihon natijalari haqida u o'tkazilgan sanadan boshlab 10 ish kuni ichida acfp.uz saytidagi shaxsiy kabinetda bilib olasiz.



A.FR+MA imtihoni bir yilda 3 marta – fevral, iyun va oktyabr oylarida o'tkaziladi. Imtihonga u o'tkazilishidan 15 – 90 kalendar kun oldin ro'yxatdan o'tish mumkin (standart ro'yxatdan o'tish). Standart ro'yxatdan o'tish qiymati – 0,7 MHEKM.

Agar siz standart muddatlarda ulgurmagan bo'lsangiz, imtihondan 7–14 kalendar kun oldin ro'yxatdan o'tish mumkin (kechroq ro'yxatdan o'tish). Kechroq ro'yxatdan o'tish qiymati – 1 MHEKM

A.FR+MA imtihonining asosiy xususiyatlari jadvalda keltiriladi:

Malaka	Imtihon-lar soni	A.FR+MA imtihoni ta'rifi	O'tish balli	Davomiy-ligi	Qiymati
AFS	1	testlar shaklida birgina savollar	60%	3 soat	0,5 MHEKM

Imtihonlarda maxsus dasturiy ta'minot va uskunadan foydalaniladi, ular:

- ❖ malaka talabgorining shaxsini tasdiqlash;
- ❖ taqiqlangan materiallar, telefonlar, mini-kameralar va boshqa gadjetlarni qo'llashni istisno qilish;
- ❖ «sof» natijalarni kafolatlash imkonini beradi.

Imtihon markazlari Toshkent shahrida va hududlarda joylashgan.

A.FR+MA imtihonini muvaffaqiyatli topshirgandan so'ng, siz acfp.uz saytidagi shaxsiy kabinetda imtihon o'tkazilgan sanadan boshlab 10 ish kuni ichida AFS diplomini olasiz.

A.FR+MA imtihoniga qanday tayyorlanish kerak



A.FR+MA imtihoniga tayyorlanishni tanlaysiz:

- ❖ Hisob va soliqlar bo'yicha resurs markazida – yozib olingan videoma'ruzalar, o'quv qo'llanmalari, mustaqil tayyorlanish uchun testlar asosida mustaqil ravishda;
- ❖ o'qituvchilar/o'quv markazlari yordamida – qatnab yoki masofadan turib;
- ❖ ushbu shakllarni qo'shib birga olib borish.

E'tibor bering!

ACFP abituriyenti sifatida ro'yxatdan o'tgandan so'ng, siz 4 ta kursda masofadan turib bepul o'qish huquqiga ega bo'lasiz:

- ✓ A.FR Moliyaviy hisobga kirish
- ✓ A.MA Boshqaruv hisobiga kirish
- ✓ A.MT Moliyachi uchun matematika asoslari
- ✓ A.XL Moliyachi uchun Excel asoslari

Ushbu kurslarga bepul kirish Prezidentning «Nodavlat ta'lim tashkilotlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va ta'lim jarayonida yoshlar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori (25.06.2021 y. PQ-5161-son) asosida Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan tashkil etilgan Hisob va soliqlar bo'yicha resurs markazi tomonidan taqdim etiladi.

Ushbu barcha kurslardan o'tish shart emas, sizga chindan ham kerak bo'lganini tanlang. Shu bois avval har bir kurs bo'yicha o'z bilimingizni tekshiring va qaysilaridan o'tish kerakligini aniqlang. O'zini o'zi baholashdan acfp.uz saytidagi «Yagona imtihon» sahifasida o'tish mumkin.

O'rta maktab bitiruvchilari va boshlovchi buxgalterlar uchun 4 ta kursning barchasidan quyidagi tartibda o'tishni tavsiya qilamiz:

(1) A.MT Moliyachi uchun matematika asoslari



(2) A.FR Moliyaviy hisobga kirish



(3) A.MA Boshqaruv hisobiga kirish



(4) A.XL Moliyachi uchun Excel asoslari

Tanlangan ta'lim olish usuliga qarab imtihonlarga tayyorlanish uchun foydali resurslardan – o'quv-uslubiy qo'llanmalar va javoblardan tajriba imtihon ishlaridan foydalaning. Siz ularni acfp.uz saytida topasiz

A.FR+MA yagona imtihonini topshirishga tayyorlanish davomiyligi sizning boshlang'ich bilimlaringiz va o'qishga bag'ishlangan vaqtga bog'liq bo'ladi. Xususan, agar siz o'rta maktab bitiruvchisi bo'lsangiz va o'qishga haftasiga 10–12 soat ajratsangiz, AFS uchun imtihonga tayyorlanish uchun 4 oygacha vaqt sarflanadi.

Akademik jihatdan halollik



ACFP imtihonlariga tayyorlanish va ularni topshirish vaqtida sizdan akademik jihatdan halollik va firibgarlikka muvofiqsizlikning eng yuqori standartlariga rioya qilishingiz kutiladi.

Imtihonlarda akademik jihatdan halollik, firibgarlikni oldini olish va aniqlash quyidagilarni ta'minlash uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega:

- ❖ talabgorlar bilimlari, qobiliyati va ko'nikmalarini adolatli baholashni;
- ❖ ish beruvchilar, mijozlar va jamiyat tomonidan ACFP malakasiga ishonchni.

Firibgarlik – talabgorga imtihon natijalarini baholashda adolatsiz ustunlik beradigan insofsizlik yoki ruxsatsiz yordam berishning har qanday shakli aniqlanganda – aybdor shaxs:

- ❖ agar firibgarlik holati birinchi marta aniqlangan bo'lsa, imtihonlardan bir yilga chetlatiladi;
- ❖ agar firibgarlik holati takroran aniqlangan bo'lsa, ACFP malakasini olish imkoniyatidan umrbod chetlatilib, batamom «qora ro'yxat»ga kiritiladi.

ACFP imtihonlarida firibgarlikni oldini olish siyosati bilan siz [bu erda](#) batafsil tanishishingiz mumkin.



AFS malaka belgisidan foydalanish

Imzoingizdagi AFS boshlang'ich malaka belgisi sizning professional darajangiz va tajribangizni namoyish qiladi. Siz undan yagona imtihonni topshirgandan so'ng foydalanishingiz mumkin. Bu ish beruvchilarga, hamkasblarga siz qanchalik malakali va qadri baland mutaxassis ekanligingiz haqida tushuncha beradi. Siz rezyumeda, tashrif qog'ozida, materiallarda va boshqalarda faxr bilan o'z malakangizni ko'rsatishingiz mumkin.

E'tibor bering!

Siz A.FR+MA va A.RA imtihonlarini topshirmagunga qadar imzoda AFSning qisqartmasidan foydalana olmaysiz. U mazkur 2 ta imtihonni topshirgan va zarur bilim, qobiliyat va ko'nikmalarni namoyish qilgan holda, malaka bo'yicha diplom olganlar uchun imtiyoz hisoblanadi.





Associate
Finance
Specialist

Keyin nima bo'ladi

AFS (Associate Finance Specialist – Sertifikatlangan kichik moliya mutaxassisi) malakasini olgandan so'ng, siz quyidagi huquqlarga ega bo'lasiz:

- ACFPda ishtirok etish darajangizni Abituriyentdan Talabagacha oshirish;
- CFS (Certified Finance Specialist – Bazaviy darajada sertifikatlangan moliya mutaxassisi) malakasini olish uchun bazaviy darajadagi imtihonlarga kirish.

**A.FR+MA va
A.PA**
imtihonlarini
topshiramiz

AFS
malakasini
olamiz

ACFPda ishtirok etish
darajasini
**Abituriyentdan
Talabagacha**
oshiramiz

CFS malakasini olish
uchun bazaviy
darajadagi
imtihonlarga kirish
imkoniyatiga ega
bo'lamiz